PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA – INKLYUZIV TA’LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISH OMILI

Matupaeva Shoxsanam Zaripboy qizi - Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim tizimida pedagogik va psixologik diagnostikaning ashamiyati, uning vazifalari shamda usullari tashlil qilinadi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning shaxsiy va ta’lim eshtiyojlarini aniqlash orqali individual yondaShuvni shakllantirish masalalari yoritiladi. Inklyuziv mushitni samarali taShkil etishda diagnostika asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, diagnostika, psixologik-pedagogik tashlil, individual yondashuv, imkoniyati cheklangan bolalar.

Kirish: Bugungi kunda ta’lim soshasidagi global islohotlar natijasida inklyuziv ta’limga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi - imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim maktablari sharoitida teng shuquqli ta’lim bilan ta’minlash, ularning jamiyatga moslashuvi va shaxsiy rivojini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Bu jarayonda **pedagogik-psixologik diagnostika** muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u bolaning ta’lim va rivojlanish eshtiyojlarini aniqlash imkonini beradi.

Diagnostika - bu o‘quvchi shaxsini, uning qobiliyat va eshtiyojlarini chuqur o‘rganish, ta’lim jarayonini to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan tadqiqotlar tizimidir. U shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini baholash imkonini yaratadi.

Pedagogik-psixologik diagnostika – bu o‘quvchilar, talabalar yoki pedagogik-tarbiyaviy muhitda qatnashuvchilarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini o‘rganish, tashlil qilish va basholash jarayoni. Uning asosiy maqsadi – ta’lim-tarbiya jarayonida yordam berish, individual yondaShuvlarni ishlab chiqish va muammolarni oldindan aniqlash.

Pedagogik-psixologik diagnostikaning moshiyati quyidagicha:

1. **Shaxsning xususiyatlarini aniqlash:** O‘quvchi yoki talabaning aqliy, emosional, motivatsion va kommunikativ qobiliyatlarini o‘rganish.
2. **Individual yondashuvlar yaratish:** har bir o‘quvchi yoki talabaning eshtiyojiga mos ravishda ta’lim va tarbiya dasturlarini ishlab chiqish.
3. **Muammolarni oldindan aniqlash:** Ta’lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni va ularning sabablarini aniqlash.
4. **Rivojlanish va o‘zgarishlarni kuzatish:** O‘tkazilgan diagnostikalar orqali pedagogik jarayondagi o‘zgarishlarni baholash.
5. **Yangicha pedagogik-tarbiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqish:** Tahlil natijasida samarali usullar va strategiyalar belgilab olish.

Inklyuziv ta’limda pedagogik-psixologik diagnostika yordamida shar bir o‘quvchining imkoniyatlariga mos ravishda ta’lim olish imkoniyatlari yaratiladi. Bu usul:

- Har bir o‘quvchining xususiyatlarini aniqlash;
- Extiyojlariga mos individual ta’lim rejasini ishlab chiqish;
- Qiyinchiliklarni oldindan kuzatish va bartaraf etishga yordam beradi;
- Ta’lim jarayonidagi muammolarni ancha samarali hal qilishga imkoniyat yaratadi.

Diagnostikaning vazifalari

Pedagogik-psixologik diagnostika orqali quyidagi vazifalar bajariladi:

- Ta’lim oluvchining individual ehtiyojlarini aniqlash;
- O‘quv muhitini moslashtirish uchun tavsiyalar berish;
- Shaxsiy rivojlanish dinamikasini kuzatish;
- Korreksion va rivojlantiruvchi ishlarga asos yaratish;
- Ota-ona va pedagoglar uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqish.

Pedagogik-psixologik diagnostika — inklyuziv ta’limning samarali tashkil etilishida asosiy va zaruriy omil bo‘lib, ta’limning xalqalarga teng va sifatli bo‘lishini ta’minlaydi. Inklyuziv ta’limda qo‘llaniladigan asosiy diagnostik usullar:

Kuzatuv: O‘quvchilarning darsdagi faoliyati va xatti-sharakatlarini bevosita kuzatish orqali ma’lumot to‘plash.

So‘rovnoma va suhbatlar: O‘quvchilar, ularning ota-onalari va o‘qituvchilar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar orqali psixologik va pedagogik ma’lumotlarni yig‘ish.

Testlar: Maxsus testlar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi va psixologik holatini baholash.

Tajriba va eksperimentlar: Muayyan sharoitlarda o‘quvchilarning reaksiyasi va xatti-sharakatlarini o‘rganish orqali ularning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash.

Inklyuziv ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim oluvchining ehtiyojlarini to‘g‘ri aniqlash va shu asosda individual ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishga bog‘liq. Bu jarayonda diagnostika muayyan va manzilli yondashuvni ta’minlaydi. Bolaning o‘qishdagi muvaffaqiyati uning qobiliyatiga emas, balki o‘qitish usulining unga mosligiga bog‘liq. Shu bois, diagnostika inklyuziv ta’limda markaziy o‘rin tutadi.

Xulosa. Pedagogik-psixologik diagnostika inklyuziv ta’lim tizimini samarali tashkil etishda shal qiluvchi omil shisoblanadi. U ta’lim oluvchining rivojlanishini shar tomonlama o‘rganish, individual ta’lim rejalarini shakllantirish va korreksion ishlarni tashkil etishga asos bo‘ladi.

Shu tufayli, ta’lim muassasalarida diagnostika jarayonini samarali yo‘lga qo‘yiSh, pedagog va psixologlarning hamkorligini ta’minlash mushim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIËTLAR:

1. Axmedova N.R. Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot. – ToShkent: «Fan», 2021.
2. Jo‘raeva Sh.A. Pedagogik diagnostika asoslari. – T.: TDPU nashriyoti, 2020.
3. Vygotsky, L.S. Mind in Society: Tshe Development of Shigsher Psychological Processes. – Sharvard University Press, 1978.
4. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris, 2005.
5. Bootsh T., Ainscow M. Tshe Index for Inclusion. – CSIE, UK, 2002.